

**8- SINF ONA TILI DARSЛИGIDA "MATN VA LUG'ATLAR BILAN ISHLASH"  
MAVZUSINING O'QITILISHI**

Azamatova Gulsanam Turdali qizi

SAMDU Kattaqo‘rg‘on filiali 3-bosqich talabasi

Djakbarova Mahliyo

*Ilmiy rahbar: SamDU Kattaqo ‘rg ‘on filiali o’qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada matn va lug’atlar bilan ishlash mavzusi yuzasidan o’quvchilarga bilm va ko’nikmalarni shakillantirish va zamonaviy bilimlarni egallash bo'yicha mulohaza olib boriladi.

**Kalit so’zlar:** Dars o’tishdagi kompitinsiyalar, iste’moldan chiqib ketgan so’zlar, badiiy uslubda qo’llanadigan so’zlar.

Muhtaram Prezidentimiz takidlab o’tganlaridek taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir.

Shuning uchun ham, O‘zbekistonda ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag‘lar yo‘naltirilmoqda. Maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o‘zgarishlari ro‘y bermoqda. Ushbu fikrlarni inobatga olgan holda bu mavzu hozirgi kunda o’quvchilarda fikrlashni va dunyo qarashni shakllantrish shaxsiy fikrni paydo qilish kabi vazifani o‘z ichiga oladi. Hozirgi kun yoshlarini bilmli davr talabi darajasida tarbiyalash matnlardan olingan xulosalar ham bunda asqotmoqda. Aynan shu talablar yuzasidan ham bu mavzu o’qitilishi kerak. Har bir o’quvchi o‘z qiziqishlari yuzasidan o‘z fikrini bayon etadi nazariy va amaliy ma’lumotlarga ega bo’ladi bunda albatta o’qituvchi zimmasida katta yuk bo’ladi. Bilm berish bilan birga ularda matndan olinishi kerak bo’lgan fikr va mulohazalar ularda mavzu yuzasidan olingan bilim tahlil qilinishi kerak bo’ladi. O‘z o’rnida lug’atlar bilan ishlashni ham o’quvchilar o’rganib oladilar. Bilamizki bugungi kunda matnlar bilan ishlash o’quvchilarda fikrlashni o’strishga yordam beruvchi va nutqini o’strish uchun vosita sifatida ko’rilmoqda. Bu mavzu 8-sinflarda keng qamrovli qilib berilgan. Berilgan matn ham katta va tarixiy, o’quvchida o‘z o’rnida tarix va hozirgi kunga nisbatlab o’rganish ko’nikmasi shakllanadi. Mavzudagi topshiriqlar ham yaxshi berilgan uni o’tishda qo’shimcha metodlarni qo’llasa ham samara beradi. Matndan notanish so’zlarni lug’ati berilsa va ularni o’quvchilar xotirasida qolishi uchun yodlatilsa bu ularni so’z boyligini oshirib berish uchun xizmat qiladi.

Albatta bu samaraliroq usul hisoblanadi ko’plab olimlar fikriga ko’ra o’quvchilarda fikrlashni o’strishga yordam beruvchi usul to’g’ri tallafuz eshitish orqali shakillantiriladi. Hozirgi kunda o‘qib tushunish mashqlari darsliklarda ko’proq berilgan.

Topshiriq sifatida berilgan so’zlar izohini o’rganish uchun o’quvchi tugul o’qituvchilar ham “O’zbek tilining izohli lug’ati “bilan taminlanmagan.

Dars vaqtida o’quvchi uyali aloqa vositalaridan ta’lim muassasalarida ishlatishga qo’yilgan cheklov tufayli eliktron variantdan foydalanish imkoniyati mavjud emas.

Yetarli salohiyat va malakaga ega bo'limgan o'qituvchi "Matn ustida ishlash" turkum mavzularini qanday o'qityapti? O'quvchi matnni o'rganayotganda unga muhim deb qarayaptimi? shu matnlar orqali olgan bilmi OTM ga kirishga asqotyaptimi? To'g'ri, o'tgan yillarda 10-11-sinfdagagi lug'ati berilgan so'zlar testga qamrab olindi, lekin matnlarchi? Ular Asli Nima uchun darslikka kiritilgan edi? O'quvchi uchun eng zerikarli dars - matn ustida ishlangan dars. Chunki unda o'qiah kerak bo'lgan grammatika nisbatan kam, matnlar asarlardan olingan parcha bo'lgani uchun undan olingan tushuncha ham yetarlicha bo'lmaydi. Darslik nazariy ma'lumotlar bilan birga mavzu ko'lami keng bo'lgan matnlar, anchayin tahlili murakkab bo'lgan asarlardan olingan parchalar va sintaktik tahlil uchun berilgan mumtoz adabiyotdan olingan gaplar bilan ham o'qituvchini, ham o'quvchini o'yantirdi.

Mavzudagi topshiriq.

Topshiriq. Rukni ostida berilgan so'zlarni alohida tariflab kengroq o'rganilib chiqishi lozim bo'ladi.

Berilgan mashqlar.

Mashqlar. Bu mavzu yuzasizdan ko'proq mulohaza olib borish uchun ular ham ko'proq fikrlashga doir qilib berilgan. 6- mashq berilgan 4 ta yozma 2 ta og'zaki qilib berilgan.

8-sinf ona tili darsliklarida berilgan matnlar esa mumtoz adabyot matnlaridan parcha ekanligi yanada qiyinchilik tug'dirdi.

Berilgan matnlarda notanish so'zlarni lug'ati kitob oxirida hammasi ham keltirilmagan bu ham muammo yo'q so'zlarni o'qituvchi o'zi lug'at qilib berolishi kerak.

Berilgan mavzu o'quvchilarda fikrlashni va to'gri yozishni shakillantirishi lozim bo'ladi. Qiziqarli dars bo'lishi uchun o'qituvchi yetarlicha malakaga va blimga ega bo'lsadagina ko'zlangan natijaga erishish mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABYOTLAR:**

1. 8- sinf Ona tili darsligi.
2. "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati» DUK.2020-y.